


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**MORPHOLOGICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF ADJECTIVE MODELS IN THE ARABIC LANGUAGE****Shavkat I. Aripov**

*Candidate of Political Sciences, Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

Xikmat F. Xudashkurov

*Student of Master degree faculty
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
hikmatullohxudashkurov21@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Adjective category, ism al-fo‘il, ism al-maf‘ul, şifa mushabbaha, exaggeration forms, ism al-tafzil, temporality, permanence, Arabic morphology, şarf.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article provides a systematic morphological and semantic analysis of the category of adjectives in the Arabic language. Within the scope of the study, the structures, patterns, conditions of usage, criteria of permanence and temporality, as well as the analogical (qiyasi) and lexical forms of ism al-fo‘il (active participle), ism al-maf‘ul (passive participle), şifa mushabbaha (quasi-adjective), forms of exaggeration and ism al-tafzil (comparative/superlative) are comprehensively examined. The article analyzes, on a scientific basis, the interrelation between form and meaning, the morphological relationship between verbs and adjectives, as well as the phenomena of idafa (genitive construction) and agreement. The adjective models in Arabic are studied comparatively, revealing their internal logical system.

ARAB TILIDA SIFAT MODELLARINING MORFOLOGIK VA SEMANTIK TAHLILI**Shavkat I. Aripov**

*Dotsent, siyosiy fanlar nomzodi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

Xikmat F. Xudashkurov

Magistratura talabasi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

hikmatullohxudashkurov21@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sifat modellari, ismi fo'il, ismi maf'ul, sifati mushabbaha, mubolag'a, ismi tafzil, hodisaviylik, doimiylik, arab morfologiyasi, sarf.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi sifat modellarining morfologik va semantik jihatdan tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ismi fo'il, ismi maf'ul, sifati mushabbaha, mubolag'a shakllari va ismi tafzilning tuzilishi, vaznlari, qo'llanish shartlari, doimiylik va hodisaviylik mezonlari, qiyosiy va samo'iy shakllari keng yoritiladi. Maqolada shakl va ma'no o'rtasidagi uzviylik, fe'l va sifat o'rtasidagi morfologik munosabat, izofa va moslashish hodisalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Arab tilidagi sifat modellari o'zaro qiyosiy o'rganilib, ularning ichki mantiqiy tizimi ochib beriladi.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОДЕЛЕЙ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Шавкат И. Арипов

Доцент, кандидат политических наук

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Хикмат Ф. Худашкurov

Магистрант

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

hikmatullohxudashkurov21@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Модели прилагательных, исм аль-фа'иль, исм аль-маф'уль, сифат мушаббаха, формы преувеличения, исм ат-тафдиль, временность, постоянство, арабская морфология, сарф.

Аннотация: В данной статье проводится системный морфологический и семантический анализ моделей прилагательных в арабском языке. В рамках исследования подробно рассматриваются структура, модели (вазны), условия употребления, критерии постоянства и временности, а также аналогические (кияси) и лексические формы исм аль-фа'иль (действительное причастие), исм аль-маф'уль (пассивное

причастие), сифа мушаббаха (квазиприлагательное), формы преувеличения и исм аль-тафдиль (сравнительная/превосходная степень). В статье на научной основе анализируется взаимосвязь формы и значения, морфологическая связь между глаголами и прилагательными, а также явления идафа (генитивной конструкции) и согласования. Модели прилагательных в арабском языке изучаются сравнительно, раскрывая их внутреннюю логическую систему.

Kirish. Arab tili semit tillari oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining boy morfologik tizimi, qat’iy grammatik qoidalari va chuqur semantik imkoniyatlari bilan dunyo tilshunosligida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu tilning eng muhim xususiyatlaridan biri – unda so‘z yasalishining, ayniqsa, fe‘l va undan hosil bo‘luvchi shakllarning yuqori darajada tizimlashtirilganligidir. Arab tilida ko‘plab leksik birliklar, jumladan sifatlar ham, mustaqil ildiz sifatida emas, balki fe‘l tizimining hosilasi sifatida shakllanadi. Shu bois sifat modellarini o‘rganish bevosita fe‘l morfologiyasi, ya’ni sarf ilmi bilan uzviy bog‘liqdir.

Arab tilida sifat modellari an’anaviy Yevropa tilshunosligidagi sifat tushunchasidan ma’lum darajada farq qiladi. Yevropa tillarida sifatlar mustaqil so‘z turkumi sifatida qaralsa, arab tilida belgi bildiruvchi birliklar ko‘pincha fe‘l asosida hosil bo‘lgan shakllar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan arab tilidagi sifat modellari nafaqat leksik, balki morfologik va semantik jihatdan ham murakkab tizim hisoblanadi. Mazkur tizim doirasida ismi fo‘il, ismi maf‘ul, sifati mushabbaha, mubolag‘a shakllari hamda ismi tafzil kabi birliklar muhim o‘rin tutadi. Ushbu shakllarning har biri o‘ziga xos vazn (model), semantik yuk va qo‘llanish xususiyatlariga ega bo‘lib, ular orqali predmet yoki shaxsning turli belgilarini ifodalash imkoniyati yaratiladi.

Sifat modellarining arab tilidagi o‘ziga xos jihatlaridan biri – uning hodisaviylik (حدوث) va doimiylik (ثبوت) mezonlari asosida farqlanishidir (Mustafa Ghalayini, 2007, p.162). Ya’ni, ayrim sifat shakllari vaqt bilan bog‘liq holda yuz beradigan va yangilanib turadigan belgini bildirsa (masalan, ismi fo‘il va ismi maf‘ul), boshqa shakllar esa barqaror, doimiy yoki tug‘ma xususiyatni ifodalaydi (masalan, sifati mushabbaha). Bu farq arab tilidagi sifat tizimining semantik asosini tashkil etadi va uni boshqa tillardagi sifat tizimlaridan ajratib turadi. Shuningdek, mubolag‘a shakllari ushbu ikki mezon o‘rtasida oraliq o‘rinni egallab, amalning takrorlanishi natijasida kuchaygan va barqarorlashgan sifatni ifodalaydi.

Arab tilidagi sifat modellari morfologik jihatdan qat’iy tizimga ega bo‘lib, har bir model muayyan semantik ma’noni ifodalaydi. Masalan, “فاعل” vazni odatda bajaruvchini bildirsa, “مفعول

” vazni amal ta’sirida qolgan obyektini ifodalaydi. “فَعَالٌ”, “فَعُولٌ”, “فَعِيلٌ” kabi vaznlar esa mubolag’a yoki doimiylik ma’nolarini ifodalashda muhim rol o’ynaydi. Bu holat arab tilida shakl va ma’no o’rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Demak, arab tilidagi har bir morfologik model nafaqat grammatik shakl, balki ma’lum semantik yukni ham o’zida mujassam etadi.

Metodologiy ava adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, arab tilidagi sifat modellari ko‘plab ilmiy ishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning morfologik modellari va semantik xususiyatlari o‘rtasidagi uzviylikni tizimli ravishda tahlil qilish masalasi hali ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, sifat modellari orqali ifodalangan ma’nolar, ularning qiyosiy va samo‘iy shakllari, shuningdek, izofa va moslashish hodisalari kabi masalalar chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada arab tilidagi sifat modellari kompleks ravishda o‘rganilib, ularning ichki mantiqiy tizimi ochib beriladi.

Tadqiqotning maqsadi – arab tilidagi sifat modellari morfologik va semantik jihatdan tizimli ravishda tahlil qilish, asosiy sifat modellari (ismi fo‘il, ismi maf‘ul, sifati mushabbaha, mubolag’a shakllari va ismi tafzil)ning tuzilishi, vaznlari, qo‘llanish xususiyatlari hamda semantik farqlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. arab tilidagi sifat kategoriyasining nazariy asoslarini yoritish;
2. asosiy sifat modellari va ularning morfologik tuzilishini tahlil qilish;
3. hodisaviylik va doimiylik mezonlari asosida sifat shakllarini qiyoslash;
4. mubolag’a shakllarining semantik xususiyatlarini aniqlash;
5. ismi tafzining darajaviy ma’no ifodalashdagi rolini ko‘rsatish;
6. sifat modellari va ularning sintaktik xususiyatlarini (izofa, moslashish) tahlil qilish

(Ibn Hisham al-Ansari, 2006, p. 265).

Tadqiqotning obyekti sifatida arab tilidagi sifat kategoriyasi tanlangan bo‘lsa, predmeti sifat modellari va ularning morfologik-semantik xususiyatlaridan iboratdir. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, tizimli va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu usullar yordamida arab tilidagi sifat modellari o‘zaro bog‘liqlikda va tizimli ravishda o‘rganildi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda arab tilidagi sifat kategoriyasi alohida-alohida shakllar sifatida emas, balki yagona morfologik-semantik tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sifat modellari o‘rtasidagi semantik o‘tishlar, ya’ni hodisaviylikdan doimiylikka o‘tish jarayoni (ayniqsa mubolag’a shakllarida) ilmiy asosda izohlanadi. Bundan tashqari, izofa va moslashish hodisalari orqali sifat kategoriyasining sintaktik xususiyatlari ham yoritiladi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati arab tilshunosligida sifat kategoriyasini chuqurroq anglashga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa arab tilini o'qitish jarayonida sifat modellari va ularning ma'nolarini to'g'ri tushuntirish, tarjima va matn tahlilida ularni to'g'ri qo'llash imkonini yaratishi bilan izohlanadi.

Demak, arab tilidagi sifat kategoriyasi murakkab, ko'p qatlamli va tizimli hodisa bo'lib, u fe'l tizimi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Har bir sifat modeli o'ziga xos morfologik shakl va semantik yukga ega bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot ushbu tizimning ichki qonuniyatlarini ochib berishga, shakl va ma'no o'rtasidagi uyg'unlikni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama. Arab tilida sifat kategoriyasi fe'l tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab morfologik tuzilmadir. Sifatlar ko'pincha fe'llardan hosil qilinadi va predmet yoki shaxsning belgi, xususiyat, holat yoki darajasini bildiradi. Arab tilining o'ziga xosligi shundaki, sifat shakllari mustaqil leksik birlik sifatida emas, balki fe'l tizimining davomiy morfologik mahsuli sifatida shakllanadi.

Sifat modellarini o'rganishda asosiy mezonlardan biri — hodisaviylik (حدوث) va doimiylik (ثبوت) o'rtasidagi farqdir. Ayrim shakllar vaqt bilan bog'liq yangilanib turuvchi holatni bildirsa, boshqalari barqaror va tug'ma sifatni ifodalaydi. Shu jihatdan ismi fo'il va sifati mushabbaha o'rtasidagi farq arab morfologiyasining eng muhim masalalaridan biridir (Mustafa G'alayini, 2007, p.164).

Arab tilida sifat modellari quyidagi asosiy shakllarni o'z ichiga oladi:

1. Ismi fo'il
2. Ismi maf'ul
3. Sifati mushabbaha
4. Mubolag'a shakllari
5. Ismi tafzil

1. ISMI FO'IL. Ismi fo'il ma'lum nisbatdagi fe'ldan olinadigan sifat bo'lib, ish-harakatni bajaruvchini bildiradi. U hodisaviy ma'noni ifodalaydi, ya'ni sifatlangan shaxsda amal vaqt bilan bog'liq ravishda yuz beradi va yangilanib turadi. Masalan: كَاتِبٌ — yozuvchi (yozayotgan shaxs) مَجْتَهِدٌ — tirishqoq (harakat qilayotgan shaxs). Bu yerda amal davom etayotgan yoki sodir bo'layotgan bo'lishi mumkin. Amal tugasa, sifat ham o'z kuchini yo'qotadi. Ismi fo'il uch harfli mujarrad fe'ldan فاعل vaznida yasaladi. بائع → باع يبيع — sotuvchi/ قال يقول → قال يقول — aytuvchi صائد يصيد → صائد يصيد — ov qiluvchi. Agar fe'ning ع harfi illatli bo'lsa, ismi fo'ilda hamzaga aylanadi. Bu i'lal fe'l shakliga ergashadi. Agar ع harfi sog'lom bo'lsa: عور يعور → عور يعور — ko'zi ojiz/ آيس يبأس → آيس يبأس — noumid (Abbas Hasan, 2004, p.345).

Mazid fe'llarda ismi fo'il muzori' shakliga asoslanadi: مكرم → أكرم يكرم — hurmat qiluvchi. Bu yerda muzori' fe'l bosh harfi tushirilib, o'rniga mim qo'yiladi va oxiridan oldingi harf kasrali qilinadi. Ba'zan فاعل vazni ismi maf'ul ma'nosida keladi. فهو في عيشة راضية — u rozi qilingan hayotdadir (ya'ni مرضية). Ismi fo'il muzori' fe'l bilan harakat va sukun jihatdan uyg'unlikka ega. يجتهد → مجتهد/ يدأب → دائب. Bu uyg'unlik ismi fā'ilning fe'l bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi (Abu al-Fath Usman ibn Jinni, 1999, p.456).

2. Ismi maf'ul va uning morfologik-semantik xususiyatlari

Ismi maf'ul arab tilidagi asosiy sifat shakllaridan biri bo'lib, u majhul nisbatdagi fe'ldan olinadi va ish-harakatning ta'siri ostida qolgan shaxs yoki predmetni bildiradi. U ham ismi fo'il kabi fe'l asosli shakldir, biroq semantik jihatdan bajaruvchini emas, balki amal ob'ektini anglatadi. Ismi maf'ul ta'rifiga ko'ra, u sifatlangan narsaga biror ish-harakat sodir bo'lganini bildiradi va bu sodir bo'lish hodisaviy xarakterga ega, ya'ni vaqt bilan bog'liq yangilanish ma'nosini o'zida mujassam etadi. Demak, u doimiy emas, balki sodir bo'lgan amal natijasini bildiradi. Masalan: مکتوب — yozilgan/ مكرم — hurmat qilingan. Bu shakllarda amal bajarilgan va natija sifatida predmetga nisbat berilgan (Abdurrahman ibn Abu Bakr, 1998, p.257).

Uch harfli mujarraddan yasalishi: Ismi maf'ul uch harfli mujarrad fe'ldan مفعول vaznida hosil qilinadi: منصور → نصر — yordam berilgan/ مخذول → خذل — tashlab qo'yilgan/ وعد → وعده — va'da qilingan. Bu yerda م prefiksi, fe'l o'zagi va واو harfi asosiy tuzilmani tashkil etadi (Muhyiddin Abdulhamid, 2002, p.441).

Ajvaf fe'llarda i'lal: Agar fe'l o'rta harfi illatli bo'lsa, مفعول vaznidagi واو tushadi va i'lal yuz beradi. Agar fe'l o'rtasi illatli bo'lsa, fonetik yengillashish yuz beradi: مبيع → باع (aslida مبيع) — sotilgan. Ikki unli yonma-yon kelgani uchun qisqartirish sodir bo'ladi. Shoz shakllar ham mavjud: ثوب مصوون — saqlangan kiyim (Mustafa Ghalayini, 2007, p.172).

Bani Tamim lahjasida: مبيع — sotilgan/ مخبوط — urilgan. Bu lahjaviy hodisa qiyosiy emas.

Mu'tal lam fe'llarda: Agar fe'lning oxiri ي yoki asli ي bo'lgan alif bilan tugasa, مفعول vaznidagi واو yā'ga aylanadi va idg'om qilinadi: قوي → مقوي عليه — unga kuch berilgan/ رضي → مرضي عنه — undan rozi bo'lingan. Asl shakllar: مرضوي، مقوي، bo'lgan, keyinchalik idg'om sodir bo'lgan (Mustafa Ghalayini, 2007, p.176).

Mazid fe'llardan: Mazid yoki rubo'iy fe'llarda ismi maf'ul muzori'ning majhul shakliga asoslanadi. Bosh harf tushirib, o'rniga م qo'yiladi. Ismi maf'ul muzori' majhul shakliga asoslanadi:

مُكْرَمٌ → يُكْرَمُ — hurmat qilingan/ مُحْتَرَمٌ → يُحْتَرَمُ — hurmat qilinadigan, bu yerda shakl muzori'ning majhul vazniga to'liq ergashadi.

3. “فَعِيلٌ” va boshqa vaznlarning “مَفْعُولٌ” ma'nosida kelishi

Arab tilida ba'zan مَفْعُولٌ vazni o'rnini boshqa vaznlar egallaydi:

فَعِيلٌ ma'nosida: قَتِيلٌ — o'ldirilgan (مَقْتُولٌ)/ ذَبِيحٌ — so'yilgan (مَذْبُوحٌ)/ كَحِيلٌ — surma tortilgan (مَكْحُولٌ). Bu shakllar samo'iy bo'lib, qiyosiy kengaytirilmaydi.

ذَبِيحٌ: ذَبِحٌ — so'yilgan/ طَحْنٌ — maydalangan/ طَرْحٌ — tashlangan

فَعَلٌ: قَتَصٌ — ovlangan/ جَزُرٌ — so'yilgan/ عَدُدٌ — sanalgan

فُعْلَةٌ: أَكَلَةٌ — yeyilgan/ غَرْفَةٌ — suzib olingan/ مَضْغَةٌ — chaynalgan (Mustafa Ghalayini, 2007, p.179).

4. Sifati mushabbaha

Sifati mushabbaha lozim fe'ldan olinadigan sifat bo'lib, u sifatlangan shaxs yoki predmetda mavjud bo'lgan belgining doimiy va barqarorligini (ثَبُوتٌ) bildiradi. U hodisaviylikni emas, balki tug'ma yoki mustahkam sifatni ifodalaydi. Sifati mushabbaha asosan uch harfli lozim fe'llardan keladi va qiyos bo'yicha to'rtta asosiy vaznga ega: أَفْعَلٌ/ فَعْلَانٌ/ فَعِيلٌ

أَفْعَلٌ vazni: أَحْمَرٌ — qizil/ أَعْرَجٌ — cho'loq/ أَعْوَرٌ — bir ko'zi ojiz

Muannas shakli: حَمْرَاءٌ — qizil (ayol jinsida)/ عَرَجَاءٌ — cho'loq (ayol jinsida)

فَعْلَانٌ vazni: غَرثَانٌ — och/ عَطْشَانٌ — chanqoq/ شَبْعَانٌ — to'q

Muannas: غَضَبِيٌّ — g'azabli (ayol)/ عَطْشِيٌّ — chanqoq (ayol)

فَعِيلٌ vazni: وَجَعٌ — og'riqli/ مَغْصٌ — ich og'rig'i/ ضَجْرٌ — zerikkan

فَعِيلٌ vazni: كَرِيمٌ — saxiy/ عَظِيمٌ — buyuk/ حَلِيمٌ — muloyim (Mustafa Ghalayini, 2007, p.181).

5. Mubolag'a shakllarining morfologik va semantik tahlili

Arab tilida mubolag'a shakllari ismi fā'il asosida shakllangan bo'lsa-da, oddiy bajaruvchilik ma'nosidan ko'ra kuchaytirilgan, takroriy yoki haddan tashqari darajadagi xususiyatni bildiradi. Ular semantik jihatdan amal ko'pligi natijasida barqarorlashgan sifatni ifodalaydi. Masalan: عَلَامَةٌ — nihoyatda bilimdon, ilmga juda boy kishi. Bu yerda oddiy “عَالِمٌ” emas, balki ko'p takrorlanadigan xususiyat nazarda tutiladi (Mustafa Ghalayini, 2007, p.183).

Mubolag'a vaznlari: Arab tilida mubolag'a shakllari o'n bir vaznda keladi va ularning barchasi samo'iydir:

فَعَالٌ جَبَّارٌ — o'ta zo'ravon/ غَفَّارٌ — ko'p kechiruvchi

مَفْعَالٌ مِفْضَالٌ — juda saxiy

فَعِيلٌ صَدِيقٌ — juda sodiq/ عَلِيمٌ — nihoyatda biluvchi

فَعَالَةٌ فَهَامَةٌ — juda tez tushunadigan ayol

مَفْعِيلٌ مَسْكِينٌ — nihoyatda kambag'al

فَعُولٌ شَرُوبٌ — ko'p ichuvchi

فَعِيلٌ حَذْرٌ — juda ehtiyotkor

فُعُولٌ قُدُوسٌ — nihoyatda pok

فَيَعُولٌ قَيَّومٌ — doimo barqaror zot

Bu shakllar ko'pincha sifati mushabbahaga semantik yaqinlashadi, chunki amal takrorlanishi xususiyatni doimiy belgi darajasiga olib chiqadi (Az-Zamakhshari, 1993, p.133).

6. Ismi tafzil

Ismi tafzīl fe'ldan olinadigan sifat bo'lib, ikki narsa bir xil sifatda sherik bo'lib, ulardan biri ikkinchisidan ustun ekanini bildiradi. U faqat "أفعل" vaznida keladi. Masalan: خَلِيلٌ أَعْلَمُ مِنْ سَعِيدٍ — Xalil Sa'iddan bilimlir. Bu misolda ikki predmet bir sifatda sherik, biroq darajada farqli.

Muannas shakli: فَضْلِي — أَفْضَلُ — eng afzal (erkak / ayol shakli) (Mustafa Amin, 2005, p.289).

Hamzaning tushishi: خَيْرٌ (kalimasini boshida hamzasi tushib qolsa):

خَيْرُ النَّاسِ مَنْ يَنْفَعُ النَّاسَ — Odamlarning yaxshisi boshqalarga foyda keltirganidir. Bu so'z aslida: أَخِيرٌ bo'lgan.

Yasash shartlari: Ismi tafzīl faqat: uch harfli, musbat, ma'lum nisbatdagi, to'liq, qiyosga yaroqli, rang yoki ayb bildirmaydigan fe'ldan yasaladi. Shuning uchun: مَاتَ — yasalmaydi, سَوْدٌ — rang bildiradi. Shoz misol: أَنْتَ أَسْوَدُ فِي عَيْنِي مِنَ الظُّلْمِ — Sen mening nazarimda zulmatdan ham qoraroqsan.

U bilan kelishi: هُوَ الْأَفْضَلُ — U eng Afzal, هِيَ الْفَضْلَى — U (ayol) eng afzal.

Nakraga izofa: خَالِدٌ أَفْضَلُ قَائِدٍ — Xolid eng yaxshi qo'mondon, فَاطِمَةُ أَفْضَلُ امْرَأَةٍ — Fotima eng yaxshi ayol.

Ma'rifaga izofa: وَلْتَجِدْنَهُمْ أَحْرَصَ النَّاسِ عَلَى حَيَاتِهِمْ — Ularni hayotga eng hirsli odamlar deb topasan. Bu yerda moslashish va moslashmaslik ikkisi ham joiz.

Tafzilsiz "أفعل": رَبِّكُمْ أَعْلَمُ بِكُمْ — Rabbingiz sizni yaxshi biluvchidir. Bu yerda "من"ni taqdir qilib bo'lmaydi, demak ustunlik ma'nosi yo'q. Agar "من"ni taqdir qilish mumkin bo'lsa — haqiqiy tafzīl (Mustafa Ghalayini, 2007, p.187).

7. Qiyosiy tahlil

Ismi foʻil va ismi mafʻul hodisaviylikni bildiradi. Sifati mushabbaha doimiylikni bildiradi. Mubolagʻa takroriy kuchayish orqali doimiylikka yaqinlashadi. Ismi tafdīl darajaviy munosabatni bildiradi.

Asosiy farq mezonlari:

1. Zamonga bogʻliqlik
2. Qiyosiylik mavjudligi
3. Morfologik vazn qatʻiyligi
4. Izofa va moslashish xususiyati

Sifati mushabbaha egasiga izofa qilinadi: طاهر القلب — qalbi pok/ حسن الخلق — xulqi chiroyli, ismi foʻil esa bunday izofani qabul qilmaydi (Khalid Abdulaziz, 2005, p.345).

Xulosa. Mazkur tadqiqotda arab tilidagi sifat kategoriyasi morfologik va semantik jihatdan tizimli ravishda tahlil qilindi. Oʻrganish jarayonida sifat kategoriyasining asosiy koʻrinishlari – ismi foʻil, ismi mafʻul, sifati mushabbaha, mubolagʻa shakllari va ismi tafzil – oʻzaro bogʻliqlikda va qiyosiy asosda koʻrib chiqildi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, arab tilida sifat tushunchasi oddiy leksik birlik emas, balki feʻl tizimining mantiqiy va morfologik davomidir.

Birinchiidan, ismi foʻil va ismi mafʻul hodisaviylik mezoni asosida shakllanadigan sifat modellari ekanligi aniqlandi. Ismi foʻil ish-harakatni bajaruvchini, ismi mafʻul esa ish-harakat taʼsirida qolgan shaxs yoki predmetni bildiradi. Ularning har ikkalasi ham feʻlning maʼlum yoki majhul nisbatiga bevosita bogʻliq boʻlib, muzoriʻ shakliga morfologik jihatdan ergashadi. Bu esa arab tilida shakl va maʼno uygʻunligining qatʻiyligini namoyon etadi. Ismi foʻilning “فاعل” vaznida, ismi mafʻulning esa “مفعول” vaznida yasalishi qatʻiy morfologik meʼyor sifatida shakllangan. Shu bilan birga, ajvaf va muʼtal feʻllarda yuz beradigan iʼlal hodisalari arab tilidagi fonetik qulaylik va morfologik izchillik oʻrtasidagi muvozanatni koʻrsatadi.

Ikkinchiidan, sifati mushabbaha kategoriyasi arab tilidagi doimiylik mezonining asosiy ifodachisi ekanligi aniqlanadi. U lozim feʻldan olinadi va vaqt bilan chegaralanmaydigan barqaror sifatni bildiradi. Ismi foʻil hodisaviylikni anglatgan boʻlsa, sifati mushabbaha ثبوت, yaʼni doimiylikni ifodalaydi. Bu farq arab tilidagi sifat tizimining semantik asosini tashkil etadi. Masalan, “كاتب” va “كريم” oʻrtasidagi tafovut faqat shakliy emas, balki chuqur semantik farqqa ega. Birinchisi amal bajaruvchini bildirsa, ikkinchisi shaxsning tugʻma yoki barqaror xususiyatini anglatadi. Sifati mushabbahaning “أفعل”, “فعلان”, “فعل”, “مفعيل” kabi turli vaznlarda kelishi esa bu kategoriyaning ichki morfologik boyligini koʻrsatadi.

Uchinchiidan, mubolagʻa shakllari sifat kategoriyasida oʻrta bosqich hodisa sifatida namoyon boʻladi. Ular dastlab ismi foʻil maʼnosini kuchaytiradi, biroq amalning koʻp takrorlanishi natijasida barqaror xususiyat darajasiga yetadi. Shu sababli mubolagʻa shakllari semantik jihatdan

sifati mushabbahaga yaqinlashadi. “شكور”, “صبور”, “جبار”, “علامة” kabi shakllar oddiy bajaruvchilik emas, balki doimiy sifat darajasiga yetgan xususiyatni bildiradi. Bu hodisa arab tilida miqdoriy kuchayishning sifatga aylanish mexanizmini ochib beradi.

To‘rtinchidan, ismi tafzil sifat kategoriyasining darajaviy tizimini ifodalaydi. U ikki yoki undan ortiq predmet o‘rtasida ustunlikni bildiradi va faqat “أفعل” vaznida keladi. Ismi tafzilning qat’iy yasash shartlari arab tilidagi morfologik intizomning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Uch harfli, musbat, ma’lum nisbatdagi, to‘liq va qiyosga yaroqli fe’llargina tafzil yasash imkoniga ega. Rang, ayb yoki bezak bildiruvchi fe’llardan tafzil yasalmasligi esa semantik cheklovlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ba’zi shoz shakllar til taraqqiyoti va nutqiy amaliyotning ta’sirini namoyon etadi.

Ismi tafzilning ba’zan tafzil ma’nosidan xoli kelishi ham alohida e’tiborga loyiq hodisadir. “وهو أهون عليه” yoki “ربكم أعلم بكم” kabi misollarda ustunlik emas, balki sifatning o‘zi ifodalanadi. Bu holat “من”ni taqdir qilish mumkin yoki mumkin emasligi mezonni orqali aniqlanadi. Demak, arab tilida morfologik shakl doimo bir xil semantik natija bermaydi; kontekst va sintaktik muhit muhim rol o‘ynaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sifat kategoriyasining barcha shakllari fe’l tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Arab tilida sifat mustaqil kategoriyadan ko‘ra fe’lning hosilasi sifatida shakllanadi. Bu holat tilning dinamik tabiatini, ya’ni amal va belgi o‘rtasidagi uzviylikni ko‘rsatadi. Shakl va ma’no o‘rtasidagi qat’iy uyg‘unlik arab morfologiyasining asosiy tamoyilidir.

Shuningdek, izofa va moslashish hodisalari sifat kategoriyasining sintaktik jihatini ochib beradi. Sifati mushabbaha egasiga izofa qilinishi, ismi fo’ilning esa bunday izofani qabul qilmasligi ularning semantik farqini yanada aniqroq namoyon qiladi. Ismi tafzilning turli holatlarda (أل bilan, izofada, nakra bilan) turlicha moslashishi esa sifat kategoriyasining sintaktikligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, arab tilidagi sifat modellari morfologik qat’iylik va semantik boylik uyg‘unligidan iborat tizimdir. Har bir vazn o‘ziga xos ma’no yukini ko‘taradi va til tizimida muayyan o‘rinni egallaydi. Hodisaviylik va doimiylik, darajaviylik va kuchaytirish, izofa va moslashish kabi mezonlar sifat kategoriyasining ichki mantiqini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari arab tilidagi sifat modellari nafaqat grammatik birlik, balki semantik tizimning muhim elementi ekanligini ko‘rsatadi. Sifat kategoriyalarining o‘zaro munosabati arab morfologiyasining chuqur mantiqiy asosga ega ekanini isbotlaydi. Shu sababli sifat kategoriyasini tizimli o‘rganish arab tilshunosligining nazariy va amaliy masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilida sifat modellari fe'l asosida shakllanadigan, hodisaviylik va doimiylik mezonlari asosida farqlanadigan, darajaviy va kuchaytirilgan ma'nolarni ifodalay oladigan murakkab morfologik tizimdir. Uning har bir ko'rinishi o'z vazni, semantik yuki va sintaktik xususiyatiga ega bo'lib, umumiy til tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur maqola arab tilidagi sifat modellarining ichki tuzilishini, morfologik qonuniyatlarini va semantik chegaralarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Bishr Amr ibn Usman ibn Qanbar (Sibawayh). (2008). Arabic Language: The Book. Al-Lugha al-'Arabiyya: Al-Kitab. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya – 624 p. (in Arabic)
2. Jamaluddin Muhammad ibn Abdullah ibn Malik at-Tai. (1990). Arabic Language: Commentary on the Facilitation. Al-Lugha al-'Arabiyya: Sharh at-Tashil. – Cairo: Dar Hajr – 560 p. (in Arabic)
3. Ibn Hisham al-Ansari (Abdullah ibn Yusuf ibn Ahmad). (2005). Arabic Language: The Enrichment of the Intelligent from the Books of the Arabs. Al-Lugha al-'Arabiyya: Mughni al-Labib 'an Kutub al-A'arib. – Beirut: Dar al-Fikr – 712 p. (in Arabic)
4. Ibn Hisham al-Ansari. (2006). Arabic Language: Commentary on Qatr al-Nada. Al-Lugha al-'Arabiyya: Sharh Qatr an-Nada wa Ball as-Sada. – Beirut: Dar al-Fikr – 320 p. (in Arabic)
5. Abu al-Fath Usman ibn Jinni. (1999). Arabic Language: The Characteristics. Al-Lugha al-'Arabiyya: Al-Khasais. – Cairo: Al-Hay'a al-Misriyya al-'Ammal lil-Kitab – 728 p. (in Arabic)
6. Jalaluddin as-Suyuti (Abdurrahman ibn Abu Bakr). (1998). Arabic Language: The Collection of Marginal Notes. Al-Lugha al-'Arabiyya: Ham' al-Hawami' fi Sharh Jam' al-Jawami'. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya – 680 p. (in Arabic)
7. Abu Zakariya Yahya ibn Ziyad al-Farra'. (1983). Arabic Language: Meanings of the Qur'an. Al-Lugha al-'Arabiyya: Ma'ani al-Qur'an. – Cairo: Dar al-Misriyya li-t-Ta'lif – 540 p. (in Arabic)
8. Abu Ali al-Farsi (Hasan ibn Ahmad). (2003). Arabic Language: The Clarification. Al-Lugha al-'Arabiyya: Al-Idah al-'Adudi. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya – 360 p. (in Arabic)
9. Radiyuddin Muhammad ibn Hasan al-Astarabadi. (2000). Arabic Language: Commentary on al-Kafiya. Al-Lugha al-'Arabiyya: Sharh al-Kafiya. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya – 640 p. (in Arabic)
10. Abbas Hasan. (2004). Arabic Language: The Comprehensive Grammar. Al-Lugha al-'Arabiyya: An-Nahw al-Wafi. – Cairo: Dar al-Ma'arif – 920 p. (in Arabic)

11. Mustafa al-Ghalayini. (2007). Arabic Language: A Comprehensive Collection of Arabic Lessons. Al-Lugha al-‘Arabiyya: Jami‘ ad-Durus al-‘Arabiyya. – Beirut: Al-Maktaba al-‘Asriyya – 608 p. (in Arabic)

12. Muhammad Muhyiddin Abdulhamid. (2002). Arabic Language: Commentary of Ibn Aqil on Alfiyya. Al-Lugha al-‘Arabiyya: Sharh Ibn Aqil ‘ala Alfiyat Ibn Malik. – Cairo: Dar at-Turath – 784 p. (in Arabic)